



**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HAYOT VA
HOKIMYAT YO'LI.UNDAN QOLGAN MODDIY VA MA'NAVIY
ME'ROS .**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi

Otaqulova Parinoz Ilyos qizi

e-mail: parinozotaqulova@gmail.com

[Tel:+998 94-302-30-06](tel:+998943023006)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo'li uning hokimyatga kelishi, Mouronnahrda hokimyatni qo'lga kiritishga bo'lgan harakati, o'z ona diorini tashlab, Kobul va Badaxshon tomon harakatlari va Hindistonni egallashi to'g'risida. Shuningdek Bobur Mirzo tomonidan yaratilgan ajoyib moddiy me'ros va ma'naviy boylik haqda tadqiqot qilindi.

Kalit so'zlar: Bobur Mirzo, Movorounnahr taxti, Kobul va Badaxshon, Boburiylar sulolasi, "Boburnoma", Bog'i Bobur.

Abstract: This article examines the life of Zahiriddin Muhammad Babur, his rise to power, his attempts to seize power in Maurannahr, his departure from his homeland, his movements towards Kabul and Badakhshan, and his conquest of India. It also examines the remarkable material and spiritual heritage created by Babur Mirza.

Keywords: Babur Mirza, Throne of Movorunnahr, Kabul and Badakhshan, Babur dynasty, "Baburnama", Garden of Babur.

Аннотация: В этой статье рассматривается жизнь Захириддина Мухаммада Бабура, его приход к власти, его попытки захватить власть в Мавераннахре, его отъезд с родины, его движения в сторону Кабула и Бадахшана и его завоевание Индии. В ней также рассматривается замечательное материальное и духовное наследие, созданное Бабуром Мирзой



Ключевые слова: Бабур Мирза, Трон Моворуннахра, Кабул и Бадахшан, династия Бабура, «Бабурнаме», Сад Бабура.

Har bir xalqning tarixi, madaniyati, milliy qiyofasi, o'tmishining qay darajada yorqinligini ifodalovchi buyuk olim va yutuk shoir va mutaffakirlari bo'ladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak biz shuni ko'ramizki tarixda el-yurt hukumdori bo'lib, qanchadan qancha urush-yurushlar qilib shu bilan birga ijod qilga qalam tebratgan buyuk shaxslarni ham uchratamiz, shunday buyuklardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevch Karimov takidlaganidek; "Bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan har qancha fahirlansak arziydi. O'zbek xalqining dovrug'ni dunyoga taratgan ulug' ajdodlarimizdan biri ularoq ul zot bizni tariximizni qadirlashga kelajakga buyuk ishonch bilan qarashga urgatadi. Zahiriddin Muhammad Bobur singari mumtoz insonlarni dunyoga bergan xalq hech qachon xalq hech qachon hor bo'lmaydi, muqarrar tarzda saodatga erishadi. Biz Bobur Mirzoni ulkan davlat arbobi qomusiy alloma, mumtoz shoir sifatida ham cheksiz qadirlaymiz, Bobur o'bek xalqining buyuk farzandi, milliy g'ururi". [1.158.]

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda, Farg'ona ulusing hokimi Umarshaxy Mirzo oilasida tug'iladi. Manbalarda keltirilishicha Umarshayx Mirzoning saltanati hududi kanggayib borayotganidan tahlikaga tushgan o'z aksi Sulton Ahmad Mirzo Toshkent hukumdori Yunusxon o'zaro ittifoq tuzib 1494-yil Andijonga qo'shin tortadilar. Ammo 1494-yilning 9-iyunida shunday tahlikali davrda Umarshayx Mirzo Axi shahridagi qarorgohda elchi kaphtarlarini uchurish vaqtida birga aqtida kapatxonana bilan birga jarga qulab halok bo'ladi.

U "Boburnona" asarida otasining o'limi haqda shunday ma'lumot beradi. <<Bu asnoda shunday g'arib voqea dast berdi, mazkur bo'lib



edimkim, Axxi qo'rgoni baland jar yoqasida erdi. Ushbu tarixda dushanba kun ramozon oyining to'rtida Umarshayx Mirzo jardin kabutar va kabutarxona bila uchub shunqor bo'ldi>>. O'ttiz to'qqiz yoshda erdi[2.9]

Shu tariqa Bobur Mirzo siyosat maydoniga kirib keladi. Umarshayx Mirzo bevaqt vafot etganidan so'ng Bobur qalamini qilichga almashadi. Shu chog'da Bobur bobosi Amir Temur poytaxti bo'lga Samarqand shahri tomon yo'l oldi. Sulton Muhammad Mirzoning o'g'illari Boysung'ur Mirzo bilan Sulton Ali Mirzo o'rtasida shunday to'qnashuvlar bo'ldiki, Samarqandni himoya qilishda ikkovida ham kuch qolmadi. Bu xabar Andijonga yitgach, Bobur podshoh Samarqandga qarab yo'l oldi. Garchan mirzolar kuchsizlanib qolgan bo'lsada unga qattiq qarshilik kursatishdi[3.47]

Katta qiyinchiliklar bilan bo'lsada Bobur Samarqand taxtini egallaydi. Ammo Samarqand taxtiga egalik ham uzoqqa chuzilmadi, ya'ni uning dushmani bulgan Tanbal tomonidan Andijon taxtiga Boburning ukasi Jahongir Mirzoni taxtga ko'taradi. Jahongir taxtga ko'tarilganligi to'g'risidagi habarni Bobur Mirzo Xo'jand huhudiga yitganda eshitadi. Yaniki bu vziyztini shunday tariflasak bo'ladi, <<Bu yoqdan haydaldi-u yoqqa yitolmadi.>> shunda Bobur tog'asi Sulton Muhammaddan madad so'radi. Onasi Qutlug' Nigorxonim va buvisi Eson Davlatbegim sharofat bilan biroz muddat O'ratepadan qunim topdi. (deya yozadi, Mirzo Muhammad Haydar "Tarixi rashidiy,, asarida)

Andijon hududidagi muommolarni Jahongir Mirzo bilan muzokaralar va uzaro sulhlar natijasida hal qildi va yana harakatlarni Samarqand hududiga tomon qaratdi. Bu to'rida Gulbadambegim shunday yozdi << Jahongirlik bobida hazratimiz tortgan qadar mashaqqat va harakatlar kam kishilarga uchragan. U Hazratga duch kelgan uqubat va hatarlar oz podshohlarga duch kelgan. Ikki qayta Samarqandni qilich zo'ri bilan fath qildilar. Birinchi marta podshoh Bobur xazratlari o'ni ikki yoshda, ikkinchi marta o'n to'qqiz yoshda, uchunchi marta



esa yigirma yoshda edilar. Olti oy davomida Samarqand olmoqqa urundilar, lekin maqsadiga erisha olmadilar.(Chunki) Xurosondagi amakilari Sulton Husayin Bayqaro kabi Qoshg'arda bo'lgan tog'alari-Sulton Muxammad ham yordam yubormadilar. Hech joydan yordam kelmagach, mayus bo'ldilar>>.

Ana shunday paytda Shoxibekxon(Shayboniyxon) "Agar o'z singlinggiz Xonzodabegimni menga bersanggiz, oramizda sulh tuzuladi va ittifoqchilik aloqalari o'rnatiladi, deb aytirib yubordi. Xonzoda begimni o'sha xonga berib, o'zlari qaytishlikka majbur bo'ldi.

Ikki yuz kishi piyoda, yilkalarida chopon, oyoqlarida chopiq,qo'llarida tayoq bo'lgan holda, beyaro, hudoga tavakkal qilib Badaxshon va Kobulga qarab yo'l oldilar. Qunduz va Badaxshonda Xushruiy shox askarlari va odamlari bilan turar edi. Xushruiy shox Boysung'ur Mirzoni o'ldirgan, Sulton Masud Mirzoning ko'ziga mil tortgan edi. Bobur Mirzo bularning barchasidan habardor bo'lsada, ammo undan aslo uch olmadi, balki <<gavhar, oltin va qo'rallardan kungli hohlaganicha olsin>> dedilar.

Bu uchrashuvdan so'ng Bobur xazratlari Kobul tomon yo'l oldilar. U vaqtda Kobul Zunnun Arg'unning o'g'li Muhammad Muqimning qo'lida edi. 1504-yilning sentiyabr oyida Kobul qo'lga kiritildi, Kobuldan so'ng Bankash egallandi. Shundan so'ng Movarounnahrni hududini egallash hayollarini ko'nglidan butunlay chiqarib tashladilar''. Ma'lum muddat davomida Kobul taxti uning tasarruvida bo'ldi.

Bobur Mirzo doim Hindiston hududini egallashga havasmand edi. Shu maqsad yo'lida dastlab Bujurni egalladi, keyin Bxaraga yo'l oldi va bu hududda talonchilik ishlariga aslo yo'l qo'ymadi. Bir necha marotaba Hindistonga tomon qo'shin tortdi va har safar Bxera, Bujur, Sialkut, Devalpur av Lohur singzri hududlarni qo'lga kiritdi. Va nihoyta 1526-yilning 12-aprelida Sulton Ibrohim bin Sulton Iskandar bin



Bahlul Ludi bilan jang qildi, xudoning inoyati bilan g'olib chiqdi.[4;29.30.31.35.]

Shu tariqa Bobur Boburiylar sulolasiga asos soladi. Bu sulola 1526-1858-yillar davomida Hindistonda hukumronlik qildi. Chet davlatlarda, hatto Hindistonda ham Boburiylar va ularning avlodlarini “Buyuk mo’g’illar” deb atash odat bo’lib kelgan aslida esa bu sulolaga Amir Temur avloddidan bulgan buyuk bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan asos solingan. Bu to’g’rida Akademik V.V. dunyoga tarqalga ‘Buyuk mug’illar” iborasining xato ekanligini ko’rsatib, <<Yevropaliklar Temurni va uning o’g’illari va nabiralarini mo’g’llardan tarqalagan deb hisoblab, Bobur saltanati uchun “Buyuk mug’illar” degan nom to’qidilar deb yozadi. Bu ibora Yevropadan Hindistonga ko’chib kelib hindlar orasida inglizcha kitoblar vositasi bilan tarqalgandir. So’nggi yillarda “Buyuk mug’illar” iborasining o’rniga “Boburiylar” iborasining qo’llanishi tarixiy haquqatni to’g’ri aks ettiradi.[5;403]

Temuriylarda buyuk ajdodi Amir Temurdan qolgan bir odat mavjud bu odat shuki ular qo’l ostidagi hududlarni obod qiladi, go’zal inshootlar, jannati bo’g’lar barpo etishadi.

Masalan; Bog’i vafo-Kobul viloyatining Ningnahor tumanidagi Odinapur qo’rg’onida 1509-yilda Bobur Mirzo tomonidan yaratiladi.

Bog’i Binafsha-Kobul yaqinida temuriylar tomonidan yaratilgan bo’lib Bobur bu bog’da yaqin kishilari va hamsuhbatlari bilan majlis va ziyofatlar tashkil qilgan.

Bog’ Zarafshon-Agra shahrida hozirgi Tojmahal maqbarasidan besh chaqirim shimol tomonda joylashgan, Hindistonda Samarqandcha chorbog’ usulida barpo qilingan birinchi bog’ 1528-yilda Bobur Mirzoning aynan o’zi tanlagan joyda o’zi chizib berga tarxi buyicha bunyod qilingan.

Bog’ Navruz/Bog’ Bobur/ Kobul shaxrining Chordexin tumanidagi bog’,Sherdorvoza tog’ning etagida. Boqqa Ulug’bek Mirzo Kobuliy



tomonidan asos solingan onasi Qutlug'nigorxonim vafot etganida Bobur Mirzo amakisining merosxurlaridan ruxsat olib marxumani shu bog'ga dafn qiladi. Bobur Mirzo keyinchalik shu bog'ni sotib qoladi va qaytadan obodonlashtirgan.

Bog' Safo- Bobur Mirzo tomonidan bunyod qilingan bo'lib ko'kamligi bilan mashhur tog' etagida xushhavo va safoli joyda bunyod qilingan.

Bog' Fatx-Bobur Mirzo tomonidan bunyod qilingan Agra shahri yonida Serki tog'ning etagida 1527-yilda Rano Sango ustidan qozonilgan g'alaba sharafiga, hal qiluvchi jang bo'lgan joyda barpo qilingan va Bog' Fatx-G'alaba Bog' deb atalgan.[6;193.195.198] Shular va yana qanchadan - qancha bog'-rog'lar barpo ettirdi

Bobur 47-yillik umri davomida ayanchli taqdir hukmlar, qismatning qaro kunlarini boshdan kechirdi va shu asnoda nazmda ajoyib baytlar bitdi, "Boburnoma" asarida esa hududlar geografiyasi, etnologiyasi, etnogirafiyasi, o'simlik va hayvonot olami to'g'risida ajoyib ma'lumotlar qoldirdi. Bu to'g'rida "Boburnoma"ni 1926-yilda ingliz tiliga tarjima qilgan ingliz olimlaridan biri Uilyam Eskinning shunday so'zlari bor <<Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbati va ular bilan muvoffaqiyatli shug'llanishi jihatidan Osiyodagi podsholar orasida Boburga teng keladigan birorta podsho topilmaydi>>. "Boburnoma"-sar o'zbek nasrining ilk va ibratli namunasi. Asrani yaratishda Bobur Mirzo turli badiiy usul va til vositalaridan mahorat bilan foydalanadi. Joylar manzaralari, topogirafiyasi, ob-havosi, o'simlik dunyosi, aholisi, xalq va qabilalarning urf-odatini bilimdon olim, adib va shoir, geograf va tabiatshunos sifatida bayon qiladi "Boburnoma"ning lotin, firansuz, ingliz, nemis, hind, afg'on, fors, rus, qozoq va boshqa tillarga tarjima qilinganligining va alohida mehr bilan o'qib kelinayotganing boisi ham shunda.[7;9.10]



Xulosa o'rnida shuni aytish joizki Bobur buyuk shaxs kelajak avlod uchun ajoyib qahraman uning hayot yo'llarini o'ganar ekanmiz uning naqadar sabir bardoshli, qatiyatli, ziyrak va dovyurak insonligini ko'ramiz. Biz Bobur Mirzo singari ajdodlarimizdan har qancha fahirlansak arziydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Islom Abdug'aniyevich Karimov. "Ma'naviy yuksalish yo'lida". Toshkent-1996.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". 1989
3. Mirza Muhammad Haydar. "Tarixi Rashidiy".
4. Gulbadambegim. "Humoyunnoma" Toshkent-1998. Manaviyat nashiryoti.
5. Bo'riboy Axmedov "Tarixdan saboqlar". O'qituvchi nashiryoti-1994
6. Zahiriddin Muhammad Bobur "Ensiklopediya". Sharq nashiryoti-2014.
7. Zahiriddin Muhitdinov "Bobur Mirzo". Andijon-nashiryoti-2005.